OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Kushbakov Qaxromon Safar o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika va psixologiya fakulteti
Maktab menejmenti kafedrasi stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim tizimi boshqaruv jarayonining mohiyati va qonuniyatlarini aniqlash, bu jarayonda sodir bo'ladigan munosabatlarni ochib berish, baholash va boshqaruv sub'ektining asosiy tamoyillarni ishlab chiqish ta'limni boshqarish jarayonida muhim ahamiyati haqida ma'lumotlar joy olgan.
Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, rivojlanish tendensiyalar, qonun-qonuniyat, boshqaruv.

O'zbekistonda ta'lim tizimi davlat tomonidan to'g'risidagi qonunlar, qarorlar va tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimining nazariy qismi, oliy o'quv yurtlari, xususiy o'quv yurtlari, xalq ta'limi, maktab ta'limi va oliy o'quv yurtlari bo'yicha tartibga solingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ta'limning bepul va har hafta 5 kun davomida olib borilishi zarurati bilan shaxsiy ta'limni ta'minlashni ta'minlaydi. Konstitutsiyada shuningdek, qiynaluvchan talabalarning o'qishiga yordam berishga mo'ljallangan qonunchilik, o'qish uchun ma'yus uchun majburiyat stavkalari va xalqaro mazkur majburiyatni yozish inson huquqlarini himoya qilishni talab qiladi.

Ta'limning tamoyillarini tashkil etish asosida, qonunchilik boshqa bir qator qonunlari, farmonlar, qarorlar va institutlar moda modern fanlar va metodikalar, tajarbat va faol innovatsiyalar, elektron ta'lim asoslari va dizayn, o'quv, iste'molchi o'sish yillari va shuningdek cheklangan. Ular hisoblanadi.

O'zbekiston ta'lim tizimini mustaqil ijtimoiy faoliyatning eng muqim jizzalaridan biri deb qo'llab-quvvatlaydigan yoshlarning kasbiy yutuqlarini ta'minlashga yo'naladi. Ular ilg'or bir fikr muomsizligini, yoshlarning fikr to'pxonalari va xayoliy va fanlarga engil deb qaror qilish hamda odamlar uchun jihozlangan sharoitlarda mustaqil fuqarolar sifatida yashashi uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'z ichiga oladi.

Jahon iqtisodiyotining intensiv rivojlanishi va raqobatning tobora kuchayib borishi sharoitida ta'lim sohasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi strategik sohalardan biri sifatidagi ahamiyati tobora ortib bormoqda."Hozirga kelib, ta'lim xizmatlari xalqaro bozorining hajmi 100 mlrd. AQSh dollarni tashkil etmoqda. «Inson kapitali» dunyo milliy boyligining 64 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 70 foiz, o'rta daromadli mamlakatlarda 58 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmoqda"[1]. Bugungi kunda oliy ta'limning innovatsion taraqqiyotning yetakchi omiliga aylanib borishi sharoitida ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishga muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Boshqaruv faoliyatining mohiyati to'g'risida g'oyalar, tushunchalar, mulohazalar, uni madaniy tarzda amalga oshirish tamoyillari, shakllari va usullari haqida tizim mavjuddir. Insoniyat tomonidan fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy muvaffaqiyatlar tobora oshirilib borishiga ko'ra boshqaruv faoliyatining ilmga bo'lgan talabi ham to'xtovsiz o'sib boradi. Bir tomondan, ta'lim boshqaruv faoliyatini konseptual boyitishdan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan amaliyotchi boshqaruvchilar o'z faoliyatini ilmiy idrok etish, uni nazariy asoslashga intiladilar.

[1] https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-rynok-obrazovatelnyh-uslug-vysshey-shkoly;http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=3649

Shu o‘rinda ta’lim faoliyatining jamiyat rivojlanishining muhim komponenti ekanligini ta’kidlab bu borada olimlarning qarashlariga e’tibor qaratamiz. Akademik S.S.G‘ulomovning e’tirof etishicha[2] “Ta’lim shunchaki jamiyat hayotining tomonlaridan birigina emas, balki umuman jamiyat rivojlanishining yetakchi, tizim hosil iluvchi omili bo‘lmoqda”.

Bu fikrni davom ettirgan iqtisochi olim Sh.R.Xolmuminov[3], “Zamonaviy sharoitlarda o‘zbek ta’lim siyosatining asosiy vazifasi – ta’limning zamonaviy xususiyatlarini uning asosliligi va davlat, jamiyat va shaxsning faol va istiqbolli ehtiyojlariga muvofiqligi asosida ta’minlash. Shunday qilib, ta’limni modernizatsiyalash - bu faqat mamlakat ta’lim majmuini rivojlantirishning muammolari majmui emas, balki ham siyosiy, ham umummilliy masaladir; u biror idoraga mansub loyiha bo‘lishi mumkin emas. Respublika fuqarolari, davlat organlari institutlari, mahalliy o‘zini boshqarish organlari, professional-pedagogik jamoatchilik, ilmiy, madaniy, tijorat va ijtimoiy institutlar ta’lim siyosatining faol sub’ektlari bo‘lishlari lozim”.

Hozirgi zamonda rivojlanish tendensiyalarini tushunish, ta’lim tizimini harakatlantiruvchi kuchlarni va omillarni tushunib yetish uchun ba’zi bir umumiy sharoitlarni va qonuniyatlarni o‘rganib chiqish kerak. Bunday qonuniyatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Ilm talab ishlab chiqarish tarmoqlarining tobora rivojlanib, kengayib boryotganligi. Bunday tarmoqlar uchun xodimlarning 50 foiz va undan ortiq qismini oliy yoki o‘rta-maxsus maxlumotli kishilar tashkil etishi zarur. Bu o‘z navbatida oliy ta’lim rivojlanishini talab qiladi.

- Ilmiy va texnik ma’lumotlarning intensiv o‘sishi, bu o‘z navbatida bunday ma’lumotlarning o‘rtacha har 7-10 yilda 2 karra ortishiga olib keladi. Bu soha mutaxassislari uzuluksiz ta’lim tizimiga qo‘shilgan holda o‘z-o‘zini takomillashtirib, malakasini oshirib borishni taqoza etadi.

- Texnikaning tez-tez almashinib turishi, ishlab chiqarish quvvatlarining har 8-10 yilda ma’nan eskirishiga olib kelmoqda, bu o‘z navbatida mutaxassislardan yaxshi fundamental tayyorgarlikni hamda tor mutaxassisliklarga xos bo‘lgan tarzda yangi texnologiyalarni tezda samarali o‘zlashtirib olishni ko‘nikmalarini talab qiladi.

- Turli yo‘nalishlardagi fanlar (biofizika, molekular genetika, nanoximiya va h.k.) tutashligini olib boriluvchi ilmiy tadqiqotlarning birinchi darajaga chiqib olishi. Bunday yo‘nalishalarda yutuqqa faqat keng qamrovli va fundamental bilimlarga ega bo‘lgan holda jamoa bilan ishlash qobiliyati ila erishish mumkin.

- O‘ta kuchli ilmiy qobiliyatli tashqi muhitning mavjudligi nafaqat insonning jismoniy mehnatini, balkim hatto uning aqliy faoliyatini ham avtomatlashtirishga olib kelmoqda. Natijada ijodiy, algoritmlanmaydigan faoliyat turlarining qadri oshdi hamda shu faoliyatni amalga oshira oladigan mutaxassislarga talab otmoqda.

- Ilmiy va shunga o‘xshash qiyin yo‘nalishlardagi faoliyatga ko‘plab kishilarning jalb qilinishing ortib borishi ayrim tadqiqotchilar tomonidan olimlarning o‘rtacha evristik salohiyatining pasayishiga sabab bo‘lishi sifatida ko‘rsatilmoqda. Bunday pasayishni kompensatsiyalash uchun mutaxassislarni ilmiy va amaliy faoliyat metodologiyalari bilan qurollanirishni talab qiladi.

- Sanoat va qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining ortib borishi moddiy ishlab chiqarishdagi insonlar sonini qisqartiradi hamda aholining ko‘proq madaniy, ma’rifiy va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi sohalarda bandligi miqdorini ortishiga olib keladi. Bu o‘z

---

[2]Gulyamov S.S. Obrazovanie v Uzbekistane: den segodnyaщniy. M.// Alma mater. 2002. №7 8 S.

[3]Xolmuminov Sh.R. O konsepsii modernizatsii obrazovaniya // Obrazovanie i sotsialno–ekonomicheskoe razvitie v nachale tretego tыsyacheletiya. Tez. dokl. konf. «XIX-Mejdunarodnыe Plexanovskie chteniya», po-svyashennoy 10–letnemu yubileyu Filiala REA im. G.V. Plexanova v g. Tashkente. 2 fevralya 2006 goda. –T., 2006. – I. – S. 17-19

navbatida an'anaviy mutaxassisliklar o'rniga yangi zamonaviy sohalar, ayniqsa postindustrializm sohasi mutaxassislariga talabni oshiradi.

- Aholining daromadlari ortib turmush tarzi yaxshilanib borishi oliy ta'liga talabning ortishiga sabab bo'luvchi omillardan sanaladi. Vaqtning bunday talablarigi rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimi qanday javob qildi hamda shu orqali rivojlanib bordi. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan, ko'p rejali jarayonlarda mutaxassislar jahon oliy ta'lim tizimining rivojlanishida quyidagi tendensiyalarni ajratib ko'rsatmoqdalar.[4]

1.Oliy ta'limning demokratlashuvi. Bu tendensiya oliy ta'limning umumiy ochiqligi, ta'lim olish shakli, turi, muhiti va mutaxassisliklarni tanlashning erkinligi, ta'lim jarayonlarinin boshqarishda avtoritarizm va ma'muriybuyruqbozlik usullaridan kechilayotgani kabi xususiyatlarni namoyon bo'layotganligi bilan xarakterlanadi.

2.Fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasi va uning oqibatida ilmiy-o'quv-ishlab chiqarish komplekslarining yaratilayotganligi. Mazkur integratsiyada markaziy o'rinda, asosiy kuch sifatida ta'lim tizimi turibdi, uning bosh bo'g'ini esa universitetlardir. Universitetlar atrofida bu tizimda tayanch kollejlar, ixtisoslashgan maktablar, oliy ta'limdan keyingi ta'lim muassasalari birlashgan. Ilmiy tadqiqot markazlari ilmiy o'sishga asos sifatida, kompleks ishlanmalar, fanlararo ishlanmalar bilan ham o'qituvchilar ishtiroki ham talabalar ishtirokini ta'minlashni nazarda tutuvchi majmualar sifatidaishtirok etmoqda. Ishlab chiqarish sektori o'zlaridagi vaziyatdan shakllangan muammolarni oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalariga yetkazish bilan ham o'zlaridagi konstruktorlik bo'limlari orqali ham yechishga ishtirok etib jarayonda qatnashishmoqda.

3.Oliy ta'limning fundamentallashuvi. Mutaxassisliklar doirasida umumiy va keng profilli, majburiy fanlar, yo'nalishlarni qisqartirish evaziga, mutaxassislik fanlari, fundamental, ixtiyoriy fanlarni ko'paytirish. Fundamentallashuvning o'ta chuqurlashuvi ham ko'pincha ta'limga bo'lgan qiziqishning so'nishiga olib keladi, tor ixtisoslik doirasida shakllanishni nazarda tutadi.

4.Ta'limning individuallashuvi. Bunda talabaning ta'lim olishi va mehnati individuallashuvi kuzatilmoqda. O'qish shakllari va muddatlarini, usullarini tanlashda talabaning individual yondoshuvlari, uning tahsil olishdagi rejalari individual tuzilishi, tahsil olishda talabaning individal psixofiziologik xusususiyatlarining inobatga olib kurslarning tashkil qilinishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Bu o'z navbatida fakultati va elektiv kurslarni tashkil etish, kuproq mustaqil shug'ullanish soatlari hisobidan shakllantirilmoqda. Bu o'z navbatida auditoriya soatlarini kamaytirib, mustaqil ta'lim soatlarini oshirishga olib kelmoqda.

5.Ta'limning insonparvarlashuvi. Bunda tabiiy, texnik sohalardagi yo'nalishlardan ko'ra ijtimoiy, gumanitar, iqtisodiy yo'nalishlardagi fanlarni tarmoqlari kengaymoqda. Bundaylarning ulushi eng yetakchi OTMlarda hozirda 30-40 foizga yetadi. Talabaning madaniy dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishni treninglar orqali kuchaytirish, turli diskussiyalar, rolli o'yinlar va boshqalar orqali ijtimoiy, madaniy munosabatlarni yaxshilashga yo'naltirish. Ta'limning insonparvarlashuvi o'qituvchining va talabaning shaxs sifatida o'z-o'zini namoyon qilishga qulay imkoniyatlarni yaratadi, insonlar bilan muloqot qilishda insoniylik xususiyatlarini oshiradi, boshqalar fikrini hurmat qilish, jamiyat oldida mas'uliyatni oshirish bo'yicha malakasini rivojlantiradi.

6. Oliy ta'limning kompyuterlashuvi. Ayrim yetakchi OTMlarda personal kompyuterlar soni talabalar sonidan oshib ketgan. Bunday ta'lim muassasalarida butun jarayonlar avtomatlashtirilgan. Ulardan avtomatlashgan ta'lim resurslari sifatida ham axborot manbasi sifatida ham, texnik vositalar sifatida ham foydalaniladi. Ta'limni

[4] Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2010. – 2. – 83-87-b.;

kompyuterlashtirilishi kasbiy faoliyatning xususiyatlarini o‘zgartiradi. Bunda yangi kasbiy ko‘nikmalar shakllanib boradi.

7.Oliy ta’limning ommaviylashuvi. Buni eng asosiy ikkita yo‘nalishda yaqqol kuzatish mumkin, birinchisi, oliy ta’limga sarflanayotgan moliyaviy resusrlarning oshib borayotganidan ko‘rsak, ikkinchisi, talabalar sonining ortib borishida ko‘rishmiz mumkin. 2009 yilda butun dunyo bo‘yicha 153 mln. Talaba bo‘lgan bo‘lsa, 2016 yilda bu raqam 516,7 mln. kishini tashkil qildi. 2016 yilda oliy ta’lim jahon yalpi mahsulotida 1198,3 mlrd. AQSH dollariga teng miqdorni tashkil qildi.[5] Bu miqdor 2015 yilga nisbatan 1 foiz ortganini ko‘rish mumkin. YUNESKOning Ta’limni rejalashtirsh Xalqaro instituti tayyorlagan “Har kimni oliy ta’lim bilan ta’minlashning olti usuli” yangi dokladi oliy ta’limni yanada ommaviy va moliyaviy jihatdan hammabop bo‘lishiga olib kelishini nazarda tutadi. Bu dokladda talabalarning oylik o‘qish summasi ularning oyltk daromadining 15 foizidan oshirmaslikni belgilab qo‘yishgan. O‘zbekistonda ham oliy ta’limning qamrovi so‘nggi 3 yilda avvalgi 9 foizdan hozirda 12 foizga yetganini ko‘ramiz. Bu raqam 2020 yilda 20 foiz, 2025 yilda 35 foiz, 2030 yilda 70 foizdan ortiqni tashkil etishi rejalashtirilgan.

8.OTMlarning mustaqilligining ortishi. Rivojlangan mamlakatlarda OTMlarning mustaqilligi so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Ular akademik, moliyaviy, siyosiy jihatdan mustaqilligini oshirib borishmoqda. Yevropa davlatlarida oliy ta’lim muassasalari avtonomlashuvi kuchayib bormoqda. Ular ma’muriy va moliyaviy o‘z o‘zini boshqarish, rahbarlarni o‘zlari saylash kabi yo‘nalishlarda mustaqil hisoblanishadi. Respublikamizda ham yangi O‘zbekiston sharoitida oliy ta’lim muassaslarining mustaqilligi oshirib borish rejalashtirilgan. 2020 yildan dastlab 10 ta OTM moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lib o‘z resurslarini mustaqil idora qilishadi.

9.Professional o‘qituvchiga talab ortishi. Jahon ta’lim va ilmiy sohasidagi qo‘nggi yillar rivoji OTMlarda nafaqat o‘qituvchini. Balki o‘z kasbining professional darajadagi ustasi, mukammal soha vakilini talab qilmoqda. O‘qituvchi ham ilmiy xodim, ham tadbirkor bo‘lib ishlashi talab etilmoqda. Shuningdek, pedagogika va psixologiyaning o‘rni ortib bormoqda, bunga sabab ta’lim jarayonlarining o‘zgarishlaridagi xususiyatlar. Bundan tashqari professoro‘qituvchilar mahalliy ijtimoiy muhitda ziyoli qatlam sifatida ijtimoiy faolligi ortishi ham tendensiya bo‘lib bormoqda.

10. Oliy ta’lim tizimi faoliyatining jamoatchilik tomonidan doimiy baholanishi. Oliy ta’lim tizimi faoliyati raqobat jihatidan rivojlanib borar ekan, ular atrofdagilar tomonidan muntazam baholanib borishadi. Hozirda jahon OTMlari xalqaro agentiliklar tomonidan turli ko‘rsatkichlar asosida reyting baholanib bormoqda. Dunyoning yetakchi reyting agentliklari QS, THE, ARWU va boshqalar xalqaro oliy ta’limni ma’lum indikatorlar orqali baholab, ularning reytingini yuritishmoqda. Bu reyting o‘z navbatida OTMlarni raqobatga chorlab, rivojlanishiga motivatsiya bermoqda. Bundan tashqari OTMlar jamoatchilikning boshqa institutlari tomonidan ham doimiy baholab, kuzatib boriladi.

11. OTMlarnig xalqarolashuvi. Dunyoning yetakchi OTmlari talabalarni o‘zlariga jalb qilish bo‘yicha turli yo‘nalishlarda ishlarni olib borishadi. Bu bilan ular o‘zlarinng asosiy faoliyatiga resurs yig‘ishi bilan birga, dunyoning eng sara aqllarini yig‘ib olishga harakat qiladi. Xorijda ta’lim olishning ortib borishi munosabati bilan mobil talabalarning ham soni ortib bormoqda. 2000 yilda xorijda tahsil olgan talabalarning soni 2 mln. bo‘lgan bo‘lsa, 2012

[5] Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. - Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 202-bet.

yilda ular 4 mln., 2018 yilda esa 7 mln. ni tashkil etdi. Bu raqamlar dunyo talabalari sonining o‘rtacha 2-3 foizini tashkil etmoqda.[6]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yildagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775 sonli qarori qabul qilinishi bilan O‘zbekistoda tahsil olishni xoxlovchi xorijiy fuqarolardan konsullik yig‘imlari undirish bekor qilindi, talabalarning o‘zaro kelishuvlarga asosan qo‘shma dasturlarda tahsil olishi hamda ularga O‘zbekiston OTMlari hamda xorijiy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘zaro ikki tomonlama tan olinuvchi diplomlarni berish bo‘yicha maqsadli ishlar boshlandi.

Oliy ta’limning yuqorida sanab o‘tilgan xalqaro va mintaqaviy tendensiyalari albatta O‘zbekistonda ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Mamlakat OTMlari bu tendensiyalardan kelib chiqib, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojantirish konsepsiyasiga asosan o‘z strategiyalarini ishlab chiqqanlar.[7]

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini yaqin kelajakdagi istiqboli bugungi kunda oliy ta’lim tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masala bo‘lib hisoblanadi. Oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni tayyorlash jarayonida o‘quv tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimi davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining rivojlanish dinamikasi va tarkibiy o‘zgarishlarini davlat tomonidan tartibga solinishi amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar, PF-60-son 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
2. Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. - Rutledj. Ikkinchi nashr. 2012. 202-bet.
3. LAP LAMBERT Academic Publishig RU, 2018. -С. 49; Расулев А.Ф. Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике //.
4. “Ta’lim muassasalarida boshqaruv jarayoni va o‘quv sifatini takomillashtirish muammolari” mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari to‘plami (2022-yil 6-dekabr)
5. Saito, Y. (2008). Yaponiyada universitet-sanoat kooperativ tadqiqot dasturi: hozirgi holat va muammolar. Asia Pacific Journal of Cooperative Education, 9(2), 115-129.
6. Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O. Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2010. – 2. – 83-87-b.;

[6] Saito, Y. (2008). Yaponiyada universitet-sanoat kooperativ tadqiqot dasturi: hozirgi holat va muammolar. Asia Pacific Journal of Cooperative Education, 9(2), 115-129.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’li tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasin tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.